

AHMAD YUGUNAKIYNING "HIBATUL – HAQOYIQ" ASARI USTIDA ISHLASH

Nematova Mohinur

FarDU 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20026594>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ahmad Yugunakiyning "Hibatul – haqoqiy" asaridagi beshinchi bo'lim, yan'ni tavozelik manfaati, kibrlik va harislikning zararlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek ushbu bo'limda keltirilgan to'rtliklar va parchalar badiiy yo'l bilan tahlil qilinadi.

Kirish so'zlar: Ahmad Yugunakiy, "Hibatul – haqoqiy", tavozelik, kibrlik, harislik.

Ahmad Yugunakiyning "Hibatul – haqoqiy" asari pandnoma tarzida yozilgan doston bo'lib, har bir bo'limi alohida mavzu yuzasidan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan parchalardan tashkil topgan.

Adib haqida ma'lumotlar kam. Ammo "Hibatul – haqoqiy" asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra: Oti – Ahamd, so'zi pand-nasihat. Otasi – Mahmud Yugunakiy ekanligi va ko'zi ojiz bo'lganligi haqida aytib o'tadi. Biroq Alisher Navoiy haqiqatda uning ko'zi ojiz bo'lsa ham, dil ko'zi ochiq sog'lardan ko'ra ravshanroq edi deb ta'kidlaydi.

Asarning qachon va qayerda paydo bo'lganli haqida turli xil qarash va mulohazalar bo'lsa-da, aniq bir faktga tayangan holda asarni tahlil qilishga to'g'ri keladi. Bunga ko'ra, E. Bertel Yugunak shahrini Farg'ona vodiysida deb ko'rsatasa, V. Bartold bu shahar Samarqand oblast rayonlaridan birida joylashganligini ta'kidlaydi. Tarixiy manabalardan, Ibn Xauqal asarida Yugunak shahrining nomi Arnak shaklida yozilgan bo'lib, Samarqand atrofida joylashganligi ta'kidlanadi. Arat Rahmatiy Ibnul Yaqubning fikriga asoslanib, Yugunak shahri "Ag'naq" shaklida yozilib, Samarqand tevaragiga o'rnashganini aytib o'tadi. Asar hijriyning VI asrida Xorazmshohlar zamonida yashagan To'g'rul qilich Spohsolorbek bin shijo amir Muhammad degan shaxsga bag'ishlangan, milodning XII-XIII asrlarida yozilgan deb aytishga to'g'ri keladi.

Ahmad Yugunakiyning ushbu asari pand-nasihat tarzida yozilganligi tufayli ham tahlil jarayoni ancha keng qamrovni o'z ichiga oladi. Jumladan,

Ul erkim ulug'sindi men-men dedi,

Ani ne xaloyiq sevar, ne xoliq.

Qamug' qazg'oniqli ochun molini,

Yemadi bordi ko'rung holini.

adib manmanlik, kibrlik, mol-u dunyoga ruju qo'ymaslik to'g'risida fikr yuritadi. Unga ko'ra kimda-kim manman deb, o'zini baland tutsa, uni na xalq, na Tangri sevadi, dunyo molini to'plagan kishi uni yeya olmay o'lib ketadi, buni ahvolini qara degan mazmundagi nasihatni beradi. Darhqiqat, kibr-u havoga berilgan kishi o'z-o'zidan ortiq havolanib boshqalarni mensimay qo'yadi, o'zni boshqalardan ustun ekanini, faqatgina u yagon ekanligini har daqiqada sezdirib turgisi keladi, ommadan ajralib turishni xohlaydi. Ammo u bu xatti-harakatlari bilan xalqdan allaqachon uzilib bo'lganligini xaloyiq bunday toifadagi kishilarni yoqtirmasligini unutilib qo'yadi. Nafaqat atrofdagi kishilar, balki Tangri taollo ham manman insonlarni yoqtirmaydi. Zero, barchamiz ham Parvardigorning oldida tengmiz, hech kim Alloning savol-javoblariga boyligi, mol-dunyosi yoinki manmanligi bilan javob bermaydi. Shunday ekan bizga ortiqcha boyligining nima kearagi bor. Aslida, manmanlik ham kibru havoga berilish ham shu boyligining ortidan paydo bo'ladigan yomon illatlar emasmi?

Ahmad Yugunakiyning tavozeni oshirish va kibrlikni tashlash to'g'irsidagi qarashlari ham nihoyatda teran.

Tavor birla ersa ulug'sindug'ung,
Ulug'lug' tavoru elik sundug'ung.
Tavor osig' nemish borusan yaling,
Qolur bunda kissing, sapat sondug'ung.

Yuqorida keltirilgan parchalarda kibrlik qilishing mol-dunyo tufayli bo'lsa, kibrga qo'l cho'zishing ham mol-dunyo tufayli, mol-dunyoning foydasi nimaga arziydi o'lganingda, yalong'och ketsang, hamyoning, to'rvang, sandig'ing qolib ketadi degan ma'nolar aks etadi. Kibriga berilish, manmanlik qilishlikning orqasida moddiyot yotadi. Inson qo'li ko'p pul ko'rsa yaqinlarni unutishni, boshqalarga bepisandlik bilan qarashni, o'rta hol yoki nochor oilalarni kamsitishni boshlaydi. Agar boyligiga ishonib o'zidan kimnidir yasab olgan insonlar bo'lsa, nima uchun ular buncha o'ziga ishonishadi? Axir tarki dunyo qilganimizda u ham biz ham faqat birgina kafan bilan ketamiz-ku. Mol-dunyosi, boylik, xazinalari bor insonlar ularni o'zlari bilan birga olib ketishmaydi-ku. Parchada keltirilgan hamyoning, to'rvang, sapat sondug'ing qolib ketadi deganda ham xuddi shunday ma'no aks etadi. Xattoki, yer sharini ko'p qismini bosib olgan Iskandar Zulqarnayn ham vafot etgandan keyin uni olib ketar choqlarida uning ikki qo'lini xalqqa ko'rsatib qo'yishliklarini aytadi. Buning sababini so'rashganda esa u shunday javob bergan: “ Men dunyoning yarmini fath etgan bo'lsam-da u dunyoga ketar chog'im qo'limda na davlatimni, na boyliklarimni olib keta olaman. Xalq shuni anglab yetsin deyman”. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, inson qanday mansabda yoinki yetarli darajada boyliklariga ega bo'lishidan qat'iy nazar uni yo'qdan bor qilgan Parvardigorini, o'zligini unutib qo'mayligi kerak.

Shuning bilan birgalikda Ahmad Yugunakiy harislik haqida ham o'zining fikrlarini bayon etib o'tgan.

Harislik ma erga yovuz xislat ul,
Harislik so'ngi g'am o'kunch hasrat ul.
Bu boylik, chig'oyliq idi qisamti,
Harisliktek erga qurg'ur zahmat ul.

Ushbu baytni tahlil qiladigan bo'lsak, mol-dunyoga hirs qo'yish yomon xislatdir, harislikning so'ngi g'am-g'ussa, hasratdan iborat. Bu boylik kambag'allik xudoning qisamtidir (buyrug'idir), harislik kishilar uchun faqat zahmatdir degan mazmundagi xulosa kelib chiqadi. Insonning ichida doimo ikki odam yashaydi: biri ruhoniy o'z bo'lsa, ikkinchisi nafsoniy o'z hisoblanadi. Bu esa turli xil hodisalarada namoyon bo'ladi. Xususan, boylikka bo'lgan hirs, unga ko'p ruju qo'yishlik ham ruhoniy o'z emas, nafsoniy o'zning yuzaga chiqishiga yana bir dalil. Darhaqiqat, bunday yomon xislatni o'zida namoyon qilgan inson xuddi hayvon kabidir. Zero, hayvonda aql-zakovat, fahm-farosat bo'lmagani kabi bunday toifadagi insonlarda ham zarracha bo'lsa-da aql bo'lmaydi. Butun hayoli qanady yo'l bilan bo'lsada boylik orttirish bo'ladi. Bu yo'lning oxiri esa g'am-anhud chekish bilan yakunlanadi. Aslini olib qaraganda, boy yoki kambag'al bo'lishlik ham Alloning inoyati bilan amalga oshadi. Shunday ekan boylik orttirgan kishilar boylik hirsiga berilib boshqalarni kamsitishi eng katta gunoh bo'ladi.

Beayb Parvardigor, hamma ham xato qiladi. Lekin uquvsiz inson hech qachon qilgan gunohlarini tushunib yetmaydi. Bilimli, zakovatli, o'qishdan to'xtamaydigan inson esa bir qilgan xatosini qayta takrorlamaslikka, olayotgan bilimidan kerakli xulosa chiqarishga harakat qiladi.

Kibrga, boylikka ortiqcha berilmaydi, barchani birdek hurmat qiladi, xoh u boy bo'lsin, xoh kambag'al. Shu tufayli bilimli insonlar har yerda aziz-u mukarram. Ahmad Yugunakiy ham xalqni o'qimishli bo'lishga chorlaydi.

Baholik dinar ul biliklik kishi,

Bu johil biliksiz bahosiz bishi.

Bilikli biliksiz qachon teng bo'lur,

Biliklik tishi er johil er tishi.

Keltirilgan ushbu parchada bilimli kishi baholiq dinorga, ilimsiz, johil kishi esa qimmatsiz yemishga o'xshatilgan. Bilimlik kishi bilan bilimsiz kishi hech qachon teng bo'lmaydi., bilimlik xotin kishi er kishiga tenglashtirilsa, bilimsiz erkak kishi xotin kishiga tenglashtiriladi. Bilimli insonlar, haqiqatda, olmosga, oltinga teng. Bilamizki, olmos ham oltin ham qiymati baland bo'lgan boyliklar hisoblanadi. Ilmli kishi shu boyliklaraga qiyos qilinadi. O'qimishli bilan o'qimishsiz inson hech qachon bitta pog'onada teng turmaydi, o'quvli kishi, shubhasiz, doimo bir necha pog'ona oldinda yuradi. Shuningdek, o'qigan xotin er kishiga tenglashtiriladi. Erkaklar ayollardan ko'p xislatlari bilan ajralib turadi: mardlik, jasurlik, kuchlilik, dovyuraklik bularni qator davom ettirsak bo'ladi... Biroq taqqoslash uchun shular ham kifoya, ya'ni o'qimishli ayol shunday er yigitga tenglashtirilmogda. Uvuqsiz yigit esa xotin kishiga qiyoslanmogda. Bu erkak kishi uchun juda og'ir, ularning nomusiga tegadigan gapdir. Ilim ahlida shunady gap bor: “Ilm olishlik erkakka ham, ayolga ham farzdir”. Shunday ekan dunyoda bilim bulog'idan suv ichmagan kimsa qolmasin!

Xulosa shuki, asarning har bir parchasi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Yuqorida keltirib o'tgan parachalarimizning birinchi to'rtligida kibrga berilmaslik, mol-dunyoga ruju qo'ymasli haqida fikr yuritiladi. Ikkinchi to'rtligimizda bu dunyoda qancha ko'p boyliklarga, baland-baland mansablarga erishma, baribir ketar chog'imiz sen ham biz ham o'zimiz bilan to'plagan boyliklarimizni olib keta olamyiz, ularni dunyodan ko'z yumgan insonga zarracha bo'lsada foydasi yo'q ekanligi haqida xulosaga kelsak, uchinchi to'rtligimizda bu dunodagi aldanchi boyliklarga ko'p aldanib qolmaslik, bu yo'lni tanlagan inson oxir-oqibatda xor-u zor bo'lishligi haqidagi fikrga kelamiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ahmad Yugunakiyning “Hibatul haqoyiq” – Toshkent – 1971. G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. B.65-71